



## THE HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ROOTS OF REGIONAL COOPERATION IN CENTRAL ASIA AND ITS MODERN INTERPRETATION

*Abbosbek Adiljanovich Isroilov*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Central Asia, regional integration, cultural identity, crossroads of civilizations, social relations, economic cooperation, ancient cities, centers of science, philosophical principles, cultural heritage.

**Received:** 19.04.26

**Accepted:** 20.04.26

**Published:** 21.04.26

**Abstract:** This article examines the historical and philosophical foundations of regional cooperation in Central Asia, as well as its modern interpretation. The study reveals the essence of integration processes shaped by ancient civilizations of the region, interactions during the Great Silk Road period, and long-standing traditions of cultural and scientific cooperation. Furthermore, the paper analyzes a new stage of cooperation among Central Asian states in the post-independence era, highlighting its political, economic, and social dimensions from a philosophical perspective. The author substantiates the importance of shared history, culture, and values in strengthening regional cooperation.

## MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY HAMKORLIKNING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI VA ZAMONAVIY TALQINI

*Abbosbek Adiljanovich Isroilov*

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, madaniy identiklik, sivilizatsiyalar chorrahasi, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy hamkorlik, qadimiy shaharlar, ilm-fan markazlari, falsafiy tamoyillar, madaniy meros.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning tarixiy-falsafiy ildizlari hamda uning zamonaviy talqini keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqadagi qadimiy sivilizatsiyalar, Buyuk Ipak yo'li davridagi o'zaro aloqalar, madaniy va ilmiy hamkorlik an'analari asosida shakllangan integratsion

jarayonlarning mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichi, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi. Muallif mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda umumiy tarix, madaniyat va qadriyatlarning ahamiyatini asoslab beradi.

## ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЕ КОРНИ РЕГИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ ТОЛКОВАНИЕ

*Аббосбек Адилжанович Исроилов*

*Доктор философии (PhD) по философским наукам  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Центральная Азия, региональная интеграция, культурная идентичность, перекрёсток цивилизаций, социальные отношения, экономическое сотрудничество, древние города, научные центры, философские принципы, культурное наследие.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются историко-философские основы регионального сотрудничества в Центральной Азии, а также его современная интерпретация. В исследовании раскрывается сущность интеграционных процессов, сформированных на основе древних цивилизаций региона, взаимосвязей периода Великого шелкового пути, культурных и научных традиций сотрудничества. Кроме того, анализируется новый этап взаимодействия государств Центральной Азии в постнезависимый период, освещаются его политические, экономические и социальные аспекты с философской точки зрения. Автор обосновывает значимость общих исторических, культурных и духовных ценностей в укреплении регионального сотрудничества.

**Kirish.** Markaziy Osiyo hududi bir necha asrlar mobaynida sivilizatsiyalar chorrahasi sifatida shakllanib keldi. Bu mintaqazaldan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda madaniyatlar sayqal topgan markaz bo'lib, shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg'unlashtiruvchi falsafiy tamoyillar bilan boyitilgan. Ijtimoiy munosabatlar va geografik joylashuv Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning o'ziga xos shakllarini yuzaga keltirgan. Akademik A.Saidov

ta'kidlaganidek, "Inson tug'ilishi va ulg'ayib borishi davomida unda ijtimoiy, diniy hamda milliy dunyoqarash rivojlanib, uning madaniy aynanligi (identikligi) shakllanadi. Inson qaysi madaniy identiklikni qabul qilishi ko'proq individual tanlov bo'lsa-da, uning bor imkoniyatlarining namoyon bo'lishi shu tanlangan jamiyat, millat darajasida amalga oshiriladi".

Bugungi kunda globalizatsiya va transmilliy hamkorlik jarayonlarida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy integratsiya muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik aloqalari qadimiy sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Xususan, Taraz, Turkiston, O'tror, Sayram, Buxoro, Samarqand, Xiva Marv, Xo'jand, Panjikent, Hisor, Kulob, Balx, Hirot, Qandahor hamda G'azna kabi madaniyat-ma'rifat markazlarida ilm-fan va ijtimoiy-madaniy hamkorlik tamoyillari shakllangan.

Qadimiy Taraz shahri Markaziy Osiyodagi qadimiy ilm-ma'rifat markazlaridan biri bo'lgan. Shahar milodiy VI asrlardan boshlab gullab-yashnagan. Mazkur shahardan Qoraxoniylar davriga oid ko'plab me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. "Turkiston shahri tarixiy manbalarda Yassi nomi bilan ham keltirilgan. Mazkur shahar IX-XII asrlarda yirik madaniy-ma'rifiy markaz sifatida alohida ahamiyatga ega". Mazkur makonda buyuk alloma, diniy mutafakkir Ahmad Yassaviy maqbarasi joylashgandir. Buyuk qomisiy olim Abu nasr Forobiyning tug'ilgan yurti O'tror esa ilm va savdo markazlaridan biri bo'lgan. Afsuski, 1219 yilda mo'g'ullar istilosi oqibatida shahar ancha tanazzulga uchragan. Sayram esa noyob sug'orish madaniyati va mudofa salohiyati bilan tanilgan shahardir. Buxoroda shakllangan Islom falsafasi, tasavvuf qoidalari dunyo ilm tamadduniga katta o'zgarishlarga olib kelgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino va Muhammad al-Xorazmiy davrida shahar O'rta Osiyoda yagona markaz sifatida bo'y ko'rsatgan. Samarqand astronomiya, matematika, me'morchilikning yuksak namunasi sifatida tanilgan. Shahardagi Ulug'bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari falsafiy tafakkur markazi hisoblanadi. Xivadagi obidalarda esa Islom falsafasi, tasavvuf va Sharq tafakkuri sayqalini ko'rish mumkin. Markaziy Osiyoning bunday noyob madaniy markazlarining asosiy falsafiy negizida quyidagicha ma'no mujassam:

Birinchidan, turli millat va elatlarning ahilligi – ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar umumiy faravonlik sari mas'uliyatni xis etish;

Ikkinchidan, axloqiy qadriyatlar – mintaqa xalqlarining umuminsoniylik, sahovatpeshalik, adolat, hurmat hamda har qanday nizolaarni tinchlik yo'li bilan hal qilishga intilish;

Uchinchidan, iqtisodiy birlik – savdo aloqalari, umumiy yo'llar orqali xalqlar o'rtasida madaaniyat va bilimlar almashuvi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Markaziy Osiyoda hamkorlik faqatgina iqtisodiy emas, balki madaniy-ma'naviy uyg'unlikda rivojlanganligini ko'rish mumkin(1-rasm).

“Markaziy Osiyo falsafiy an’alarida hamkorlik tushunchasi shaxs va jamiyat uyg’unligi, ijtimoiy adolat va axloqiy mas’uliyat orqali rivojlantiriladi”. Islom falsafasi, sufizm va mahalliy urf-odatlarida quyidagi asosiy tamoyillar ko‘riladi:

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligining ilk yillarida yo‘lga qo‘yilgan integratsiyalashuv jarayonlari faqatgina rasmiy uchrashuvlar yoki qog‘ozdagi hamkorlikdan iborat bo‘ldi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar hamda tobora chigalliklarga sabab bo‘lgan chegara muammolarini xalqlarning farovonligi yo‘lida hal qilish masalasi deklarativ ko‘rinishdab nariga o‘tmadi. Mintaqada davlatlari yagona hamkorlik platformasiga intilish o‘rniga yetakchilik uchun raqobat olib borishga kirishdilar. Milliy identitetni targ‘ib etish maqsadida o‘z millatini ustun qo‘yib, islohotlar bosqichlarini sinxronlashtirish o‘rniga, har bir davlatni islohot modellari turlicha tanlanishi oqibatida ular bir-biridan uzoqlasha boshladilar. Muntaqaviy hamkorlik esa chetga surib qo‘yildi. Aslida esa bu islohotlar zamiri “Markaziy Osiyo – umumiy taraqqiyot birligi” sifatida amalga oshirilishi lozim edi. Bu aslida XX asr boshlarida emas, undan ham ilgari davrlarda paydo bo‘lgan hodisa edi.

Markaziy Osiyo davlatlarining bir-biriga integratsiyalashuv zarurati ayniqsa, o‘sha davrdagi tashqi faktorlar – mintaqada gegomonlikni o‘rnatuvchi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy harakatlariga qarshi qaratilishi lozim edi. Masalan Chor Rossiyasi, sobiq Sovet iitifoqi mintaqaga o‘z hududining bo‘lagi sifatida qaraganligi, ta’sirini o‘tkazganligi barchamizga ma’lumdir. So‘nggra AQSH bir necha yillar mobaynida Afg‘onistonga qilgan qurolli bosqinlarining asl niyati ham mintaqaning bir qismida nazoratni o‘rnatish deyishga asoslar mavjud. Xitoy esa Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlari bilan teng huquqli hamkorlik aloqalarini o‘rnatishni afzal ko‘rdilar.

2016 yilgacha mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida o‘ziga xoslik tendensiya shakllanib, ayrim davlatlar o‘zaro yaqinlashish va hamkorlikni afzal bilsa, ba’zilari bu jarayonda alohidalikka intildilar. Oqibatda Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy-iqtisodiy, ta’lim, tibbiyot hamda ekologik musolalarda yuzaga kelgan muammolarni birgalikda hal etish o‘rniga uning yanada global ahamiyat kasb etishiga olib keldi. Bunga bir necha faktorlar muhim omil bo‘ldi, mintaqa davlatlarining birlashuviga halaqit beruvchi jarayonlar bir necha bosqichda amalga oshirildi hamda ularning integratsiyasiga imkon berilmadi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Jahon tartibotining keng ko‘lamda transformatsiyaga uchrashi, global iqtisodiyotni parchalashga qaratilgan xatarlar, iqlim o‘zgarishi, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarning keskinlashib borayotgani sa’y-harakatlarimizni birlashtirish yo‘lidagi intilishimizni kuchaytirdi” .

Bugungi kunda mintaqadagi tinchlikni ta'minlash va rivojlanish dunyo barqarorligini ta'minlovchi asosiy tendensiyalardan biridir. Bunga misol tariqasida Yaqin Sharq mintaqasida sodir bo'layotgan qurolli mojarolar jahonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tanazzulga qarab ketishiga sabab bo'lmoqda. Ayni shu sababdan ham, mintaqa xalqlari hamkorligi har qachongidan ham bugun zarurdir. Ming yillar davomida ahil, inoq bo'lib yashagan bu xalqlar o'zaro hamjihatlik va taraqqiyotni ta'minlab kelganlar. Har qanday istilolar davrida ham o'zligini yo'qotmaganlar va maa'rifatda dunyoga o'rnak bo'lganlar. Birinchi prezident I.Karimov keltirib o'tganidek, "Tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi".

Bugungi dunyo davlatlarining integratsiyalashuvi davrida Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik aloqlalari har qachongidan ham zarurdir. Bunga bir necha omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan:

- mintaqa davlatlar suverenitetini daxlsizligini ta'minlash, o'zaro hurmat vatnglikdagi ijtimoiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;
- globallashuvning bugungi salbiy oqibatlariga qarshi birgalikda kurashish va umumiy taraqqiyot yo'llarini saqlab qolish;
- mintaqaning dunyodagi obro'sini saqlab qolish va tashqi kuchlardan birgalikda himoya qilish, ma'rifiy sohalarda izchil islohatlarni amalga oshirib dunyo ilm-faniga yana Navoiy, Abay, Chingiz Aytmatov kabi buyuk shaxslarni yetkazib berish;
- mintaqada umumiy iqtisodiy salohiyatni saqlab qolish, ishsizlikka qarshi kurashish, bandlikni ta'minlash, ma'naviy xastaliklarga barham berish, mafkuraviy barqarorlikni potensial shakllantirish;

Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yilliklar davomida intimoiy hayotning barcha sinovli va quvonchli kunlarini birgalikda boshidan kechirganlar. Bugungi kunda biz ajdodlarimiz yaratgan tajriba va imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, hamda ularni ijtimoiy hayotda, ilm-fanda qo'llash muhimdir. Shuning bilan, Markaziy Osiyoda ma'naviy-ma'rifiy birdamlikni vujudga keltirishimiz zaruratga aylandi. Bu kabi birdamlik asosida mintaqa davlatlar dunyo siyosatida o'zining mustahkam o'rniga va mavqeiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, birinchidan, dunyoning sanoati rivojlangan davlatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini o'rnatishda avvalo, mintaqa manfaatlarini ko'zlab kelgusi strategiyaalarni ishlab chiqish, unda baarchaning tenglik huquqini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, asosiy maqsad hamkorlik orqali mintaqaning global muammolarini ijobiy hal etish hamda ularni bartaraf etish tamoyiliga amal qilish yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Ulkan

transport-logistika sanoati, muqobil energiya yuzasidan hamkorlikda ilg'or texnologiyalarni amaliyotga joriy etish yoki servis sohasini rivojlantirish orqali muvoffaqiyatga erishiladi.

Uchinchidan, hamkorlik aloqalarini evalyutsion yo'l bilan amalga oshirish lozim. Uning ilk bosqichlarida avvalo, temir yo'l liniyalarini yo'lga qo'yish, Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini yanada kengaytish maqsadga muvofiq. Xitoy, Hindiston, Pokiston va G'arbgaz quvurlarini o'tkazish orqali infratuzilmaviy aloqalarni yaxshilash hamda kelgusida mustahkam yangi yo'lni barpo etish uchun yetarlicha moddiy asos yaratiladi. Shu bilan birga mintaqaviy turizm salohiyati rivojlanib, bu jarayon ham yangi davrni boshlab beradi.

To'rtinchidan, iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishda mintaqada xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish zarur. Bu borada O'zbekiston va Qozog'iston tashabbuskor davlatlardir. Mintaqadagi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishining ijobiy tomoni, unda investitsiya oqimining jadal kirib kelishidir. Bu yangi ish o'rni, qo'shimcha daromad va rivojlanish demakdir. Xitoy bilan ilgari surilgan "bir kamar – bir yo'l" tamoyili aynan shu sohani rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Beshinchidan, mintaqaning eng istiqbolli sohasidan biri turizmdir. O'zbekistonning Shohimardon, Chorvoq, Ertoshsoy, Chodak qishloqlari, Qirg'izistonning Issiqko'l kabi hududlari tabiiy ekologik iqlimi Yevropa turistik joylari bilan bimalol raqobatlasha oladi.

Biz mintaqaga tashrif buyuruvchi turistlarga ekologik toza, tarixiy buyuklik va boshqa sohalarda o'z salohiyatimizni bimalol maqtana olamiz. Buning uchun esa birinchi galda mintaqaviy transport logistika salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishimiz? Buning uchun esa investitsiyalar jalb qilishimiz lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo xalqlari, millatlarining hamkorligi barqarorlik va taraqqiyotning muhim garovidir. Buning zarurati bugungi integratsiya jarayonlarida mintaqamiz uchun ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yangi davrni boshlab beradi. Bu esa dunyoda sodir bo'layotgan va "ishonch inqirozi" davrida ma'naviy-ma'rifiy kamol topishning va tashqi xavf-xatarlardan birgalikda bartaraf etishning imkoni yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida. <https://president.uz/oz/lists/view/8653>. 13.11.2025 yil
2. Saidov A. Yangi Markaziy Osiyoning mintaqaviy o'ziga xosligi va xalqar-huquqiy subyektligi. <https://parliament.gov.uz/news/yangi-markaziy-osiyo>. 26.11.2025 yil
3. Mavrulov A. "Madaniyat va Uchinchi Renessans yoxud beqiyos iroda kuchi va vijdon amri bilan..." - "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021 yil. 10 dekabr

4. Jo'rayev N. O'zbekistonning ma'naviyat strategiyasi. T., Ma'naviyat. 2016 yil B.32.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilas kuch. T., "Ma'naviyat". 2008 B.59.